

**BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH YO'LLARI**

**Madaminova Madina Abdurasulovna**

**Xodjayeva Gulyor Axmedova**

*Xorazim viloyati Urganch tumani*

*14-son maktabning amaliyotchi psixologlar*

**Matyoqubova Zuhra Yoldosh qizi**

*Xorazim viloyati Urganch tumani 47-IDUM*

**Annotatsiya:** Bu maqolada pedagog xodimlarining boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash psixologiyasi yoritilgan bo'lib o'quvchilar psixologiyasidagi o'zgarishlar akseleratsiya jarayoni, har bir yosh davrida bo'ladigan krizis jarayoni yoritilgan. O'quvchilarda bo'ladigan psixologik o'zgarishlar davrida o'quvchilar bilan qanday ishlash yo'llari yoritilgan.

**Kalit s o'zlar:** Pedagog, o'quvchi, o'qituvchi, akseleratsiya, krizis, yosh davrlari, texnologiya, intilekt, xotira, tafakkur, nutq, xayol, iroda.

Har bir pedagog ma'lum darajada psixolog bo'lish ham talab etiladi, chunki ular har biri o'ziga xos bo'lgan, turli yoshdagi, turli individual xususiyatlarga ega o'quvchilar bilan ish olib boradi. Har bir bola faqat o'ziga xos bilish faoliyati, iroda, xarakter xulq atvor xususiyatiga ega. Maktabdagi ta'lim- tarbiya berish jarayonida mana shu xususiyatlar bilish va shunga asoslanib ularga individual munosabat bo'lish lozim. Mana shularni hisobga olgandagina, har bir pedagog o'zining asosiy vazifasi ya'ni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Ayni vaziyatda boshlang'ich ta'lim sohasida quyidagi muammoga duch kelishimiz mumkin, ya'ni hozirgi yosh avlod ma'lum sabablarga k o'ra akseleratsiya(turli omillar sabab o'sish va rivojlanishning tezlashishi) holati kuzatilmoqda. Mavjud texnika-texnologiyalarni foydalanish mexanizmlari juda tez o'zlashtira boradi. O'quvchilarning yuqori darajadagi intilektiga mos dars tizimi va shu darajadagi pedagogik qobiliyat talab etiladi. Biz esa uni psixologik tomondan o'rganib chiqamiz. Bu kabi masalalar bilan ishlovchi psixologiyaning ma'lum sohasi mavjud bo'lib unda ta'lim-tarbiya muammolarini tatbiq qiladi. Unda shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini ,bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiya maqsadi – shart- sharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi tasirini kuchaytirishdir. Ta'lim psixologiyasida o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari (temperament, xarakter, qizishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos tomonlari, ta'lim jarayonining boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o'rganiladi. Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasi o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini beradigan, ilmiy- texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni

tamillaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish muhim masaladir. Tarbiya psixologiyaning asosiy vazifasi maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarini shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tatqiqotlari o'quv materialini mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darslik tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlarini tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik psixologiya muammolari quyidagilar:

- Ta'lim tarbiyaning umumiy va yosh muammolari. Bola ayni davrda nimaga ko'p ehtiyoj sezadi - kognitiv, intellektual yoki shaxs sifatini rivojlantirishgami?

- Bolaning ongli ta'lim va tarbiyaga psixologik tayyorligi muammosi

- Bolaning pedagogik qarovsizligi muammosi

- Talimni individuallashtirishni ta'minlash muammosi

Yuqorida keltirilgan psixologik- pedagogik muammolarni hal qilish o'qituvchilardan yuqori kasbiy mahoratni, psixologik bilim, k o'nikma va malakalarni talab qiladi. Bu kabi muammolar oldini olish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin. Ular: kuzatish, yozma, g'zaki savolnomalar, eksprement va boshqalar. Bu metodlar bolalarning yoshi va psixologik, pedgagogik muammolarga bog'liq ravishda qo'llaniladi. Masalan kuzatish metodi psixik xususiyatlarni uzoq vaqt davomida, rejali biror maqsad asosida o'rganish hisoblanadi. U universal metod bo'lib, turli vaziyatlarda ishlatiladi. Ilmiy kuzatish hayotiy kuzatishdan tupdan farq qiladi. Hayotiy kuzatish – kundalik hayotda rejasiz amalga oshirilib, turli tasodiflarga bog'liq bo'ladi. Kuztish ilmiy bo'lishi shu bilan bir qatorda psixologik - pedagogik kuzatish bo'lishi uchun bir qancha talablarga amal qilishi lozim:

1. Maqsadga yo'nalganlik umuman o'quvchini emas, balki uning shaxsiy sifatlarini aniq namoyon bo'lishini turli vaziyatlarda va faoliyatning har xil turlarda – o'yin, o'qish, mehnat, muloqot jarayonida kuzatish.

2. Rejali kuzatish boshlashdan oldin vazifalar belgilab olinishi, uning tuzulishi ya'ni vaqti va vositalari, nimani qayd etish lozim. Kuzatishdan maqsad xulq-atvorda topilgan kamchiliklar to'g'irlash yo'llarini ishlab chiqish bo'lmog'i lozim.

3. Mustaqillik - yo'l - yo'lakay emas mustaqil ravishda o'tkazilishi kerak

4. Tabiiylik kuzatishning tabiiy sharoitlarda o'tkazilishi, o'qituvchining ishtirokisiz o'tkazilishi zarurki, o'quvchi kuzatilayotganini sezmasligi kerak.

5. Tizimlilik - tizimli ravishda yoki rejalashtirilgan ma'lum oraliqdan so'ng o'tkazilishi zarur

6. Obyektivlik taxminlar bilan emas, aniq fakt, harakat, o'quvchi xulq-atvoridagi xususiyatlarini qayd etish, shu asosda xulosa chiqarish lozim.

7. Qayd etish – olingan natijalar kuzatish jarayonida yoki uo'tkazilgandan so'ng darhol qayd etilishi lozim.

Shu kabi yana boshqa metod va usullardan anketa testlardan foydalangan holda o'quvchidagi ba'zan jamoadagi muommolarni aniqlash mumkin. Bu ishlardan olgan natijalar orqali kerakli xulosalar chiqara olish zarur bo'ladi. Bola ruhiyati, tarbiyasi,



qobiliyatlari turli tashqi va ichki ta'sirlari orqali ijobiy va salbiy tomonga o'zgarishi mumkin. Ular oiladagi muhit, sog'ligi va ijtimoiy muhit ta'sirlaridir.

Kichik maktab yoshida psixik rivojlanishning hakatlantiruvchi kuchi o'qituvchi tomonidan o'quvchi oldiga qo'yiladigan yangi talablarni qondirish bilan ularni qondirishning eski usullari, bola psixik rivojlanish dararajasi uning bilim, malaka, ko'nikmalari o'rtasidagi ziddiyatdir. Vujudga kelgan yangi ehtiyojlarni qondirish uchun o'quvchiga faoliyat va xatti- harakatning ancha murakkab usullarini o'zlashtirish zarur bo'ladi. Masalan: darsda o'zini yaxshi tutish, tanaffus vaqtida intizomli bo'lish talabi bilan maktabga kelgunga qadar bolada mavjud bo'lgan odatlar ya'ni ixtiyorsiz, impulsiv harakatlar qilish, xohishiga qarab ish tutish, irodaviy zo'r - berishning kuchsiz, zaifligi; o'rtasidagi ziddiyatning bartaraf qilinishi natijasida bolada intizomlilik kabi ijobiy odat rivojlanadi.

Bunda bolaning potensial imkoniyatlari ham uning psixik taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch sifatida chiqadi.

Demak, bola psixik taraqqiyotini ta'lim-tarbiya jarayonida boshlab borish uchun har bir yosh davrining asosiy ziddiyatlari, qarama-qarshiliklarini yaxshi bilish va hisobga olish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari umumiy barcha jarayonlarga qiziqishlari boshqa yosh davrdagi insonlardan yuqori bo'ladi. Ammo psixik taraqqiyotning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish jarayonida yosh krizislari yuz berish holati kuzatiladi. Ya'ni bola bog'chada yoki uydagi o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga o'tishi murakkablashadi. Ayni bosqichda bola qaysar, asabiy bo'lib qolib kattalar bilan nizolar paydo bo'ladi, avvalo bajaradigan ishlari va vazifalarini qilishdan bosh tortadi. Krizis davrida paydo bo'ladigan yangi ehtiyojlari qondirilmaydigan bolalar shunday reaksiya namoyon qiladilar. Olimlarning uzoq yillik kuzatishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, bola psixikasida boshlang'ich sinf o'qituvchisining psixik qobiliyatlari namoyon bo'ladi. O'qituvchi qay soha b o'yicha yuqori qobiliyatga ega bo'lsa o'quvchilarida ham aynan o'sha soha bo'yicha ilgor bo'lib voyaga yetadi. Bu kabi holatlar oldini olish uchun darsning har bir qismida, to'garak ishlarini olib borishda, sinf jamoasi bilan muloqot jarayonlarida, ota-onalar bilan hamkorlik ishlarida sof ma'naviy muhit yarata olishi lozim. Bola ichki dunyosi nozik va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, to'g'ri tomonga yo'naltira olishi talab etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchi ya'ni tarbiyalanuvchini shaxsini hurmat qilish, uni kelajak bunyodkori sifatida ta'lim tarbiya berish lozim. Zero birinchi Prezidentimiz aytganidek "Kelajak-yoshlar qo'lidadir. Hozir u qiziqayotgan narsa yoki jarayon ertangi kashfiyot poydevori va g'oyalari bo'lishi mumkin, shu sababdan ularga erkinlik berib o'zi xohlagan sohani tanlashiga to'g'ri yo'l ko'rsataylik. Zero, pedogog, o'qituvchi shogirdlari yo'lini sham kabi yorituvchi insondir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1."Umumiy pedagogika" B.X.Xodjayev "Sano- sandart" nashryoti Toshkent -2017
2. "Yosh davrlari va pedagogik psixologiyasi" Sh.A.D o'stmuhammedova , Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimov, Sh.T.Alimboyeva. Toshkent – 2013
3. ziyonet.uz manbalari